

## TA'LIM SOHASIDA BOSHLANG'ICH TA'LIMNIMG RIVOJLANISHI

Hamroyeva Feruza

Buxoro davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola ta'lism tizimida boshlang'ich ta'lism faoliyati, rivojlantirish to'g'risida ma'lumot berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Boshlang'ich ta'lism, ijodiy faoliyat. maktab o'quvchilari, maktab faoliyati, ta'lism faoliyati.*

Bugungi tezkor fan, texnika, texnologiyalar o'zgarayotgan davrda ta'lism islohotlariga katta e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. Ta'lism hamisha yangiliklar bilan hamnafas bo'lib yashasagina, ta'limda islohotlar yuzaga keladi, o'qituvchi salohiyati oshadi, o'quvchilar yangicha g'oyalarni yaratuvchisiga aylanadi. Bu esa o'z-o'zidan o'z ishiga ijodiy mas'uliyat bilan yondashuvchi, fan, texnika, san'at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga jamiyatni yetaklaydi. Shunga ko'ra, jamiyat taraqqiyoti talabalaridan kelib chiqqan holda har bir o'quvchini ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim va zarur ekan, bu boshlang'ich sinf o'qituvchilarga ham alohida mas'uliyat yuklaydi. Zero, boshlang'ich ta'lism-ta'limning asosi poydevori hisonlanadi. Asos mustahkam bo'lmas ekan u uzoq turmay, qachondir qulab tushishi muqarrar. Boshlang'ich ta'limda o'qituvchilar dars jarayonida o'quvchi tafakkurining mustaqil bo'lishiga, o'quv materialining o'zlashtirilishi, tezligi va mustahkamligiga, standart bo'limgan vazifalarni hal qilishda aqliy chandalashning (topqirlikning) tezligiga, o'rganib chiqilayotgan hodisalarning mohiyatiga chuqur kirib borish orqali muhim bo'limgan narsadan muhimini ajrata bilishiga erishishlari erishishlari lozim. Bunda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirish ularning bu borada egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini osonlikcha egallahlarida turtki beradi. Ijodiy faoliyatni shakllantirishda nazariy bilimlar bilan amaliyotni uyg'unlashtirish, muammoli vaziyatlar yaratish, texnologik yondashuvlar va ta'limgagi innovatsiyalardan unumli va samarali foydalanish lozim.

Zamonaviy boshlang'ich ta'lism o'qituvchisi o'quv - bilim jarayonining rahbari hisoblanadi. Shu sababdan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi jarayonga to'g'ri rahbarlik qilish uchun, chuqur bilimga ega bo'lishi kerak. Shu bilan birga yuksak kasb mahoratiga ega bo'lishi lozim. O'qituvchi ko'p jihatdan o'quvchiga o'rnakdir. Shuning uchun ham u birinchi navbatda bolani o'ziga jalb eta olishi kerak. Yangilanayotgan boshlang'ich ta'lism nazariyasi o'qituvchining shaxsiy sifatlari, kasb mahorati va bilim darajasini diagnostika qilish asoslarini ishlab chiqishi lozim. Tekshirish natijalari asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash va ta'lism amaliyotiga joriy etilishi kechiktirilib bo'lmaydigan vazifalardan biridir. Boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilarning ta'lism faoliyatini yaxshilashning eng samarali shakli – bu o'qituvchining bilimliligi va mahoratida. Shu sababli avvalo ta'lism sifatini yaxshilashning yo'li birinchi

navbatda kasbini sevuvchi hamda mahoratli o`qituvchi tayyorlashda. O`qituvchi mahoratli bo`lsa , albatta o`quvchilar bilimli va har tomonlama yetuk bo`ladi. Buning uchun avvalo o`qituvchining o`zi har tomonlama barkamol bo`lishi talab etiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “ Yangi O`zbekiston strategiyasi” kitobida shunday so`zlarni ta`kidlab o`tgan “ Jonajon Vatanimiz – O`zbekistonni eng rivojlangan davlatlar, qatoriga olib chiqish sharaflı va ayni paytda nihoyatda mas`uliyatli vazifa” . Biz rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishimiz uchun ta`lim tizimiga katta e'tibor qaratilyapdi. Buning dadili sifatida O`zbekiston hududining har bir viloyatida “Prezident maktablari” qurilayotgani. Zamonaviy boshlang`ich ta`lim jarayonida o`quvchilarni rivojlantiruvchi xarakterga ega bo`lgan ta`lim tizimi tadbiq qilingan. Unda kichik mакtab yoshidagi o`quvchilar o`z yosh xususiyatlari, tafakkuri hamda ruhiy darajalarini o`zlashtirish imkonini beradigan ta`limiy faoliyatga kirishadilar. Kichik mакtab yoshidagi bolalarda o`qish hamda o`rganishga qaratilgan faoliyatning shakllanishida, har bir o`quv predmeti bo`yicha nazariy bilimlarni egallash jarayonida ularning ongi va tafakkuri jadal tarzda rivojlanadi. Bu ong va tafakkur o`z xarakteriga ko`ra nazariy hamda ilmiy tushunchalarni o`zlashtirish natijasida vujudga kelgan ong va tafakkur bo`lib, bolaning jadal tarzda taraqqiy etishini, dunyoqarashining rivojlanishini ta`minlaydi. Shu asosga ko`ra, boshlang`ich ta`limning bosh maqsadi kichik mакtab yoshidagi o`quvchilarda ta`lim olishga, o`rganishga qaratilgan faoliyatni shakllantirish. Va shu asosida ularni tarbiyalash hamda shaxsiy imkoniyatlarni ro`yobga chiqarishdan iborat. Kichik mакtab yoshidagi o`quvchilarning rivojlanishida o`yin, sport, ijodiy faoliyat ham muhim o`rin tutadi. Lekin o`qish, o`rganish, ya`ni ta`limiy faoliyat boshqa barcha faoliyat turlarini muayyan bir maqsadga- bolani mujassam rivojlantirish maqsadiga yo`naltirishi lozim. Zamonaviy boshlang`ich ta`lim uchun istiqbolli, ustuvor yo`nalishlardan biri bu shaxsning umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruvida tarbiyalash asosida rivojlantirishdan iboratdir. O`quvchilarda har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yo`naltirilgan tarbiya jarayonidir. Bugungi kunda o`zida ta`lim va tarbiya elementlarini mujassamlashtirgan boshlang`ich ta`lim jarayonini tashkil etish dolzarb mavzulardan biridir. Kichik mакtab yoshidagi o`quvchilarni o`qitish va ulardan milliy hamda umuminsoniy tarbiya elementlarini singdirish yo`li amaliy jihatdan tadbiq qilinishi lozim. Bunda o`quv materiali shaklida berilgan ta`limiy matnlarda o`quvchilarda turli shakllarda axloqiy – ma`naviy tarbiya va milliy nafosat meyorlarini, diniy hamda umuminsoniy qadriyatlarni singdirish nazarda tutiladi. Boshlang`ich ta`lim jarayonida ona tili va matematika ta`limining ahamiyati beqiyosdir.

at. Boshlang`ich mакtab yoshidagi bolalarning ta`lim faoliyatini loyihalashtirishning eng samarali shakli - bu o`qituvchi va talabaning o`zaro ta`sir darajasida yagona o`quv yo`nalishini ta`minlaydigan vektor-modulli model bo`lib, o`quv faoliyatining har bir tarkibiy-modulli tarkibiy qismi: motivatsion, indikativ, mazmuni, operativ - faoliyat, nazorat - baholash, ishlashni to`g`irlash va ishlab chiqilgan algoritm asosida O`zbekistondagi ta`lim faoliyatining har bir tarkibiy qismi doirasida amalga oshiriladi.

Boshlang'ich ta'limga ta'lim mazmumi, metod va shakllari o'quvchining ijodiy faoliyatni rivojlantirishga yordam beradi. Pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri barcha bolalarning ijodiy faoliyati har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Bu esa kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga doir shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o'quvchilarni ijodiy faoliyatini rivojlantirishga doir innovatsion faoliyatga tayyorlash o'qituvchi va o'quvchilar munosabatida hamkorlik faoliyatini vujudga keltiradi. Bunda innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanish yuqori samara beradi. Hozirgi davrda o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan biror-bir berilgan mustaqil muammoli topshiriq o'quvchini mustaqil izlashga va biror bir narsani mustaqil ijodiy kashf etishga, faol kirishismli bo'lishga olib keladi. Bu esa o'z-o'zidan bolada ikki holatda-bilish va ijod holatida ko'rindigan sifatlari namoyon bo'lishiga olib keladi. Bolada o'z-o'zidan ijodiy faoliyat sifatlari uyg'onadi. Berilgan topshiriqni uddalashi orqali o'zi ijod qilgan ijodiy vaziyatlardan ilhomlanish, zavqlanish, jo'shqinlik, yangilik qilishga ilhomlanish va g'ayrioddiylikni his etish, ziddiyatlarga nisbatan sezgirlik, ijodiy moyillik, ichki kurashlarni sinashga bo'lgan qobiliyat, ramziy ijodkorlik, tashabbuskorlik, kashfiyotchilik, zehn, o'ziga xoslik, g'oyalarni topishga, ularning individual hal qilishga moyillikni paydo qiladi. Bu esa bolaning mактабда, oilada va boshqa ijtimoiy muhitda beriladigan axloq me'yorlarini saqlab qolish ko'nikmasiga ega bo'lishiga, tuyg'ular va harakatlar erkinligiga, tanish narsalarni notanish narsalarda ko'ra olish, muammolarni shaxsan o'zi mustaqil aql bilan hal etishga o'rganishga olib keladi. Suningdek bola shaxsiy qobiliyatini ijodiy ishlarni bajarish va himoyalash shaklida amalga oshirishga o'rganadi.

Xulosa zamonaviy boshlang'ich ta'lim uchun istiqbolli, ustuvor yo`nalishlardan biri bu –o'quvchilarning yetuk shaxs sifatida rivojlanishi hamda milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash asosidan iboratdir. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilarining zamonaviy ta'limga o'rni haqida o'rganishda ushbu maqoladan foydalanishni talaba, ilmiy izlanuvchilar hamda boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun tavsiya etiladi. Zamonaviy ta'limning o'rni O'zbekiston yoshlarining kelajagidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abramova G. S. Ta'limga faoliyatini shakllantirishning individual xususiyatlari / / Maktab o'quvchilarining ta'limga faoliyatini shakllantirish / tahrir. V. V. Davydov, I. Lompshera, A. K. Markova. - M.: Pedagogika, 1982. - 297 b.
2. Ta'limga qiziqishni shakllantirishning dolzarb masalalari / ed. G. I. Shchukina tomonidan. M.: Ma'rifatparvarlik, 1984. - 176 b.
3. Ananyev B. G. Tanlangan psixologik asarlar: M: Pedagogik, 1980. -323 b.
4. "G'afur G`ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi". Toshkent-2013.
5. A`zam Xoliqov. "Pedagogik mahorat". "Tafakkur bo`stoni". Toshkent-2011.